

**MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA TA'LIM SIFATI
SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA NUTQ FUNKSIYASI VA
SHAKLLARINING RIVOJLANISH O'RNI VA XUSUSIYATLARI**

Yusupova Barchinoy Aliqulovna

Termiz davlat pedagogika instituti Pedagogika va psixologiya yo'nalishi talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarda nutq funksiyasi va shakillarini o'rganishda proaktiv metodikalardan foydalanish masalalari bayon etilgan.

Kalit so'zlar: maktabgacha yosh, oilaviy munosabatlar, "men", ota-onaga munosabat, nutq funksiyasi.

Аннотация: В данной статье рассмотрены вопросы использования проективных методов в изучении функций и форм речи у дошкольников.

Ключевые слова: дошкольный возраст, семейные отношения, «я», отношение к родителям, речевая функция.

O'zbekistonda oilalarni mustahkamlash, ularni ijtimoiy himoyalash, barkamol shaxs, ma'naviy yetuk, jismonan sog'lom avlodni tarbiyalash yo'lida ijobiy ishlari o'z ifodasini topmoqda. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora - tadbirlar to'g'risida" 2019 yil 3 maydag'i PQ-4307-son qaroriga muvofiq yoshlarni mustaqil hayotga kafolatli tayyorlash, tarbiyaning homiladorlik davridan boshlanib, 18 yoshigacha davom etadigan, tadrijiylik va uzlusizligiga asoslangan metodikani ishlab chiqish va hayotga tatbiq etish, yoshlarni shaxs sifatida o'z-o'zini rivojlantirishga yo'naltirish, dunyoqarashi keng, faol fuqarolar etib tarbiyalash maqsadida "Uzlusiz ma'naviy tarbiya konsepsiysi" tasdiqlandi. Oilaviy tarbiya ijtimoiy tarbiyaga nisbatan bolalarning ruhiy olamiga, hissiyoti va tuyg'ulariga chuqur ta'sir ko'rsatadi[6]. Kattalar va tengdoshlar bilan muloqot qilish bolaga o'zining «men»ini anglash imkonini beradi. Aynan muloqotda «men» obrazining shakllanishi ro'y beradi. Shunday ekan biz maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirish va ularni ravon nutqqa o'rgatishimiz kerak, bu esa ularning kelajakda o'z o'rnini topishga fikirlarini bemalol ifodalay olishga, o'z istak hohishlarini bemalol bayon qila olish imkonini beradi[3]. Maktabgacha yoshdagi bolalarning nutqini rivojlantirish bo'yicha maktabgacha ta'lim muassasalari o'qituvchilarining ishining maqsadi bolaning boshlang'ich kommunikativ kompetentsiyasini shakllantirishdir. Ushbu maqsadni amalga oshirish maktabgacha yoshning oxiriga kelib, nutq bola va boshqa odamlar o'rtasidagi universal aloqa vositasiga aylanishini nazarda tutadi: kattaroq maktabgacha yoshdagi bola turli yoshdagi, jinsi va ijtimoiy maqomidagi odamlar bilan muloqot qilishi mumkin. Maktabgacha ta'lim bo'yicha Davlat Ta'lim

Standartiga ko'ra: "Bola yetarlicha yaxshi gapira oladi, o'z fikrlari va istaklarini ifoda eta oladi, o'z fikrlari, his-tuyg'ulari va istaklarini ifodalash uchun nutqdan foydalana oladi, muloqot sharoitida nutq bayonini qura oladi. tovushlarni ajrata oladi Boshqacha aytganda, bola savodxonlik uchun zarur shart-sharoitlarni rivojlantiradi. Maktabgacha ta'lim muassasalarida 5 ta metodika bo'yicha bolalarga ta'lim tarbiya saboqlari berib boriladi. Bularidan eng asosiysi "Nutq o'stirish mashg'ulotlari" desak mubolag'a bo'lmaydi. Chunki, nutq o'stirish nafaqat bolaning so'z boyligini oshirish, balki uning muloqot qobiliyintini rivojlantiradi, undagi bilish jarayonlarining shu jumladan bolaning tafakkurini o'stirishda ham muhim vosita bo'lib hisoblanadi[1].

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Hozirda ko'plab psixodiagnostik vositalar testlar, metodikalar, so'rovnomalari mavjud bo'lib ulardan keng foydalanilmoqda. Shunday tashxis vositalaridan biri bu «Tushunchalarni ta'riflash» nomi bilan keng tarqalgan proekтив metodikadir. Bu metodika maktabgacha yoshdagি bolalarga hamda kichik mакtab yoshidagi bolalarga mo'ljallangan bo'lib bu metodika yordamida bolaning so'z boyligini tekshirib uni yanada rivojlantsak bo'ladi. Bu metodikani o'tkazish pedagogik va psixologik amaliyotda qulay va ommabop[4,5]. Bu testni maktabgacha ta'lim muassasasi tarbiyachilar, o'qituvchilar, ta'lim muassasalari psixologlari va ota-onalar ham o'tkazishlari mumkin.

Metodika quyidagi tartib bo'yicha o'tkaziladi;

«Tushunchalarni ta'riflash» metodikasi

Ushbu metodikani o'tkazish uchun bolaga quyidagi so'zlar to'plami beriladi:

- 1) Velosiped, mix, gazeta, havo, kuz.
- 2) Qor, par, etik, tanga, avtomobil.
- 3) Avtobus, xat, shlyapa, chaqimchi, urmoq.
- 4) Qisqich, ilon, dushman, botinka, qo'rqmoq.
- 5) Yoz, bahor, qoqilmoq, qistirgich, yig'lamoq.

Bolaga quyidagicha ko'rsatma beriladi: «Oldinda har xil so'zlar to'plami turibdi. Tasavvur qil, sen ushbu so'zlarning birortasini har qanday ma'noni anglatishini bilmaydigan kishi bilan uchrashib qolding. Sen bu kishiga har qaysi so'z nimani anglatishini tushuntirishing lozim, masalan «velosiped» so'zini olaylik. Sen shu so'zni qanday izohlar eding? Shu tarzda bolaga quyidagi misoldagi 5 ta to'plamdan olingan so'zlarga ketma-ketlikda aniqlik kiritishi aytiladi[2].

Masalan: avtomobil, mix, gazeta, tanga, qahramon, bog'lanmoq, aylanmoq. Har bir berilgan to'g'ri javob uchun bola 1 baldan qo'lga kiritadi. Har bir so'zni ta'riflash uchun 30 soniyadan vaqt beriladi. Agar bu vaqt ichida bola berilgan

so'zni ta'riflay olsa, tadqiqotchi bu so'zni qoldirib, tartib bilan yana yangi so'zni o'qib beradi[2].

ESLATMA:

1. Agar bola o'qishni bilsa va bu unga qiyinchilik tug'dirmasa, so'zlani o'zi o'qib izohlashi mumkin. Boshqa hollarda tadqiqotchi so'zlarni bolaga o'zi o'qib beradi.
2. Bola har bir so'zni izohlashdan avval u shu so'zning nima ekanligi va ma'nosiga tushunadimi-yo'qmi ishonch hosil qilishi lozim. Buni quyidagi savollarni berish orqali aniqlash mumkin: Bu so'zni bilasanmi? Sen bu so'zning ma'nosiga tushunasamni va boshqalar. Bola tomonidan tasdiq javob olingandagina tadqiqotchi bolaga so'zni mustaqil ravishda ma'nosini izohlashni taklif qiladi va o'zi vaqtini belgilab beradi.
3. Agar bola tomonidan berilgan javobda so'zlarni izohi to'liq bo'lmasa, unda bolaga o'rtacha 0,5 ball, umuman to'g'ri izohlay olmasa, 0 ball qo'yiladi. Natijalarni baholash bola topshiriqni bajarishda qo'lga kiritilgan ballar yig'indisining eng yuqorisi-5-ballga, quyisi - 0 ballga teng bo'ladi.

Tajriba so'ngida jami ballar hisoblanadi. Shu bolani qayta psixodiagnostika qilish zarur bo'lsa, yangi so'zlar to'plamidan foydalanish tavsiya qilinadi.

Ravojlanish darajasi haqida xulosha:

- 5 ball — juda yuqori
- 4-4,5 ball - yuqori
- 2-3,5 ball - o'rta
- 1-1,5 ball - quyi
- 0-0,5 ball - juda past

Bizning tadqiqotimizda 31 nafar 5-7 yoshli MTT tarbiyalanuvchilari ishtirok etishdilar. Tadqiqot davomida bolalarga metodika haida ma'lumot berilib har bir boladan individual tarzda ushbu metodika oldik va ularni tahlil qilib borildi.

XULOSA

Shunday qilib, maktabgacha yoshdagি bolalar nutqini rejali tarzda rivojlantirish uchun nafaqat ertaklar bilan tanishtirish avvalombor ularni asosli ravishda tanlash eng ahamiyatli so'zlarni ularning mavzu jihatdan xilma-xilligi, ya'ni sifat tarkibi ma'nosi bo'yicha o'rganishni ta'minlash ham dolzarb masaladir. Tajriba natijalariga ko'ra sinaluvchilarning 32,2 % so'zlarni to'g'ri va ravon bemalol qiyalmasdan tushuntirib berishdi qolganlarida esa sal to'xtalishlari kuzatildi.

Jami sinaluvchilar soni 31 nafar bo'lib, shundan 10 nafari 5 ball, 15 nafari 4-4,5 ball, 3 nafari 3,5 ball hamda 3 nafari 2,5 ball olishdi. Umumiy hisobda 31 nafar bolaga $31 \times 5 = 155$ ta so'z berilgan bo'lib shundan 125 ta so'zga to'g'ri javob berishdi.

Demak maktabgacha yoshdagি bolalarda bilish jarayonlaridan nutq faoliyatining rivojlanganlik darajasi 80,6% to‘g‘ri kelmoqda.

ADABIYOTLAR

1. Babayeva D. R. Nutq o‘sirish nazariyasi va metodikasi. T; - 2017.
2. Nishanova Z., Qurbonova Z., Abdiev S. Psixodiagnostika va eksperimental psixologiya. T; - 3. Nishanova Z.T., Kamilova N.G., Abdullayeva D.U., Xolnazarova M.X. Rivojlanish psixologiyasi va Pedagogik psixologiya. T; - 2018
4. Norbosheva M.O. Maktabgacha ta’limda psixodiagnostika Termiz, 2015
5. Norbosheva M.A. Bolalar psixologiyasi va psixodiagnostikasi. T.,2020
6. Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiysi. Toshkent-2019 yil
7. G‘oziyev E.,Samarova SH. Bolalar psixologiyasi T.,2012
- 8.Norbosheva, M. (2023). ИГРА КАК СРЕДСТВО ОВЛАДЕНИЯ НАЦИОНАЛЬНЫХ ЦЕННОСТЕЙ В ФОРМИРОВАНИИ ЛИЧНОСТИ РЕБЕНКА. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, 3(2). извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/8384>
9. Norbosheva, M. (2022). МУЛОҚОТ ЖАРАЁНИДА МАКТАБГАЧА ЁШДАГИ БОЛА ШАХСИНИНГ ИЖТИМОЙ-ПСИХОЛОГИК РИВОЖЛАНИШ ХУСУСИЯТЛАРИ. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, 2(6). извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/7459>
- 10.Norbosheva, M. (2022). О ТЕХНИКЕ НАЧАЛА РАЗГОВОРА С КЛИЕНТОМ В ПСИХОЛОГИЧЕСКОМ КОНСУЛЬТИРОВАНИИ. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, 2(6). извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/7456>